

## PSIXOLINGVISTIKANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA FANLARARO TADQIQOTLAR MUAMMOSI

*Qosimboyeva Sayyora Nig'matilla qizi*

*Samarqand davlat pedagogika institute*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti,*

*Ilmiy rahbar: Dsc, dotsent Anorqulova O.N.*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada psixolingvistikaning fan sifatida shakllanish jarayoni, uning rivojlanish bosqichlari hamda til va tafakkur o'rtasidagi murakkab munosabatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, psixolingvistikaning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan ilmiy nazariyalar va konseptual qarashlar yoritiladi. Tadqiqot jarayonida tilshunoslik va psixologiya fanlarining integratsiyasi natijasida psixolingvistikaning shakllanishi hamda uning zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Muallif tomonidan psixolingvistikaning zamonaviy ta'lim jarayonidagi metodologik ahamiyati haqida nazariy xulosalar ilgari suriladi.

*Kalit so'zlar:* psixolingvistika, til va tafakkur, nutq jarayoni, tilshunoslik, psixologiya, fanlararo integratsiya, oliy ta'lim, lingvistik tafakkur.

## ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛИНГВИСТИКИ И ПРОБЛЕМА МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В СОВРЕМЕННОМ ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

*Косимбоева Сайёра Нигматилла кизи*

*Самаркандский государственный педагогический институт  
магистрантка направления «Узбекский язык и литература»,*

*Научный руководитель: DSc, доцент Аноркулова О.Н.*

*Аннотация.* В данной статье рассматривается процесс становления психолингвистики как самостоятельной научной дисциплины, а также анализируются основные этапы её развития и сложные взаимосвязи между языком и мышлением. Кроме того, освещаются научные теории и концептуальные подходы, оказавшие влияние на формирование психолингвистики. В ходе исследования анализируется процесс становления психолингвистики как результат интеграции лингвистики и психологии, а также определяется её место в современной лингвистической науке. Автором выдвигаются теоретические выводы о методологическом значении психолингвистики в современном образовательном процессе.

**Ключевые слова:** психолингвистика, язык и мышление, речевая деятельность, лингвистика, психология, междисциплинарная интеграция, высшее образование, лингвистическое мышление.

## STAGES OF THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLINGUISTICS AND THE PROBLEM OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH IN MODERN HIGHER EDUCATION

*Qosimboyeva Sayyora Nig‘matilla qizi*

*Samarkand State Pedagogical Institute*

*Master's student, Uzbek Language and Literature*

*Scientific supervisor: DSc, Associate Professor Anorqulova O.N.*

*Abstract.* This article examines the formation of psycholinguistics as an independent scientific discipline and analyzes the main stages of its development as well as the complex relationship between language and thought. The study also highlights the scientific theories and conceptual approaches that contributed to the emergence and development of psycholinguistics. In the course of the research, the formation of psycholinguistics is considered as a result of the integration of linguistics

*and psychology, and its role in modern linguistic studies is discussed. The author also proposes theoretical conclusions regarding the methodological significance of psycholinguistics in the modern educational process.*

**Keywords:** *psycholinguistics, language and thought, speech activity, linguistics, psychology, interdisciplinary integration, higher education, linguistic thinking.*

Hozirgi globallashuv sharoitida ilmiy bilimlar tizimi tobora murakkablashib, fanlararo integratsiya ilmiy taraqqiyotning muhim shartlaridan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, tilshunoslik, psixologiya, kognitiv fanlar hamda pedagogika kesishgan nuqtalarda yangi ilmiy yo'nalishlar shakllanmoqda. Ana shunday integrativ fanlardan biri psixolingvistika hisoblanadi. Psixolingvistika inson nutq faoliyatining psixologik mexanizmlari, tilni egallash jarayoni, nutqni idrok etish hamda til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganadigan fan sifatida shakllangan. Mazkur fan tilshunoslik va psixologiya fanlarining uzviy integratsiyasi natijasida vujudga kelgan bo'lib, insonning nutqiy faoliyatini kompleks tarzda tadqiq etishga imkon beradi.

Psixolingvistika atamasi ilmiy muomalaga XX asrning o'rtalarida amerikalik olimlar tomonidan kiritilgan. 1946-yilda amerikalik psixolog N. Pronko "Language and Psycholinguistics" nomli maqolasida ushbu termini qo'llagan bo'lsa-da, dastlabki davrda u keng ilmiy jamoatchilik tomonidan to'liq e'tirof etilmagan edi. Biroq keyingi yillarda tilshunoslik va psixologiya o'rtasidagi ilmiy aloqalarning kuchayishi natijasida psixolingvistika mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, psixolingvistikaning nazariy asoslari ancha avval, XIX asr tilshunosligidagi psixologik yo'nalish bilan bog'liq holda shakllana boshlagan. Bu yo'nalishning rivojlanishida til falsafasi va tilning ruhiy tabiatini tadqiq etgan olimlarning ilmiy qarashlari muhim rol o'ynagan. Psixolingvistikaning ilmiy fan sifatida shakllanishi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqich XIX asr tilshunosligidagi psixologik yo'nalish bilan bog'liq bo'lib, bu davrda til hodisalari inson psixikasi bilan bog'liq holda talqin etila boshladi. Tilshunoslikdagi ushbu yo'nalishning shakllanishida nemis olimi Vilgelm fon Humboldtning til falsafasi muhim nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Humboldt tilni inson ruhiyati va milliy tafakkurining ifodasi sifatida talqin qilib,

tilni doimiy rivojlanib boruvchi dinamik hodisa sifatida baholagan. Mazkur g'oyalar keyinchalik nemis tilshunosi G.Shteyntal tomonidan rivojlantirildi. U tilni xalq ruhining ifodasi sifatida talqin qilib, tilshunoslikning metodologik asosini psixologiya bilan bog'lash zarurligini ta'kidladi. Shteyntal M.Lotsarus bilan hamkorlikda etnopsixologiya yo'nalishini rivojlantirishga harakat qilgan hamda "Etnik psixologiya va tilshunoslik" jurnalini tashkil etgan.

Keyingi bosqich XX asr boshlarida tilshunoslik va psixologiya o'rtasidagi ilmiy aloqalarning yanada kuchayishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda til hodisalarini psixologik mexanizmlar asosida izohlashga bo'lgan qiziqish ortdi. Ayniqsa, A.A.Potebnya asarlarida til birliklarining paydo bo'lishi, so'zning ichki shakli va semantik taraqqiyoti psixologik jarayonlar bilan bog'liq holda talqin qilindi. Potebnya nazariyasiga ko'ra, so'zning ichki shakli uning paydo bo'lishiga asos bo'lgan obraz markazi bilan bog'liq bo'ladi. Bu esa til birliklarining shakllanishi inson tafakkuridagi assotsiativ jarayonlar bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Psixolingvistikaning mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishi esa XX asrning 50-yillariga to'g'ri keladi. 1953-yilda AQSHning Blumington shahrida o'tkazilgan universitetlararo ilmiy seminar psixolingvistikaning shakllanishida muhim bosqich bo'ldi. Mazkur seminarida psixologlar va tilshunoslar birgalikda nutq jarayonining psixologik mexanizmlarini o'rganish bo'yicha ilmiy muhokamalar olib bordilar. Natijada psixolingvistika tilshunoslik va psixologiyaning integratsion sohasi sifatida shakllana boshladi. Bugungi kunda psixolingvistika nafaqat nazariy tilshunoslik, balki pedagogika, kognitiv fanlar, neyrolingvistika hamda kommunikatsiya tadqiqotlari uchun ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida tilni o'qitish metodikasini takomillashtirish, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish hamda talabalarning lingvistik tafakkurini shakllantirishda psixolingvistik yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi.

Biroq hozirgi oliy ta'lim tizimida fanlararo integratsiyaning etarli darajada rivojlanmaganligi psixolingvistik tadqiqotlarning samaradorligini ma'lum darajada cheklab qo'yimoqda. Ko'plab ta'lim dasturlarida tilshunoslik, psixologiya va pedagogika fanlari alohida o'rganilsa-da, ularning o'zaro integratsiyasi etarli darajada

ta'minlanmagan. Natijada talabalarda til jarayonlarini kompleks ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish ko'nikmasi etarli darajada shakllanmaydi. Zamonaviy ilmiy paradigma esa aksincha, kompleks va integrativ yondashuvni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, psixolingvistika oliy ta'lim tizimida quyidagi muammolarni hal etishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin:

- tilni o'qitish jarayonida psixologik omillarni hisobga olish;
- nutqiy faoliyatni shakllantirishning kognitiv mexanizmlarini aniqlash;
- talabalarda mustaqil fikrlash va lingvistik tafakkurni rivojlantirish;
- fanlararo ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish.

Muallifning fikricha, zamonaviy oliy ta'lim tizimida psixolingvistik tadqiqotlar asosida yangi pedagogik modellarning ishlab chiqilishi zarur. Bunday yondashuv tilni o'qitish jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Psixolingvistika tilshunoslik va psixologiya fanlarining integratsiyasi natijasida shakllangan muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir. Uning nazariy ildizlari XIX asr tilshunosligidagi psixologik yo'nalishga borib taqaladi. XX asrning o'rtalarida esa psixolingvistika mustaqil ilmiy fan sifatida shakllandi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, til jarayonlarini to'liq anglash uchun ularni faqat lingvistik nuqtai nazardan emas, balki psixologik va kognitiv jihatdan ham tahlil qilish zarur. Shu sababli psixolingvistika hozirgi ilmiy paradigmalarda muhim o'rin egallaydi. Hozirgi oliy ta'lim tizimida fanlararo integratsiyani kuchaytirish, psixolingvistik yondashuv asosida yangi pedagogik metodlarni ishlab chiqish va talabalarda lingvistik tafakkurni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Leontyev A.A. **Psixolingvistika asoslari**. – Moskva, 1997.
2. Potebnya A.A. **Mysl i yazyk**. – Moskva, 1999.
3. Humboldt V. **Til va tafakkur falsafasi**. – Berlin, 1984.
4. Steinthal H. **Grammar, Logic and Psychology**. – Berlin, 1881.
5. Chomsky N. **Language and Mind**. – New York, 2006.
6. Levelt W. **Speaking: From Intention to Articulation**. – MIT Press, 1989.

7. Carroll J.B. **Psycholinguistics Research Problems**. – New York, 1953.
8. Osgood C. **Method and Theory in Experimental Psychology**. – Oxford, 1957.
9. Safarov Sh. **Tilshunoslik nazariyasi**. – Toshkent, 2008.
10. Mahmudov N. **Til va tafakkur**. – Toshkent, 2015